

ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDAGI O'RNI

Obidova Feruza Yaxyoevna

Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasи dotsenti
obidova.feruza@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada investitsiya faoliyati bo ‘yicha qabul qilingan me’yoriy hujjalarning qonunchilik bazasini mustahkamlashga ta’siri, investitsiya dasturi, iqtisodiyotga jalb qilingan to ‘gridan-to ‘gri investitsiyagarni jalb etish amaliyoti tahlili keltirilgan. O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli yoritilgan, shuningdek investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish va to ‘g’ridan-to ‘g’ri xorijiy investitsiyalar faol jalb qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Tayanch so‘zlar: Erkin iqtisodiy hududlar, xorijiy investitsiyalari, asosiy kapital, investitsiya muhiti, to ‘g’ridan-to ‘g’ri xorijiy investitsiyalar, imtiyozlar, yalpi ichki mahsulot, eksport, import, chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar.

РОЛЬ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В ЭКОНОМИКЕ НАШЕЙ СТРАНЫ

Обидова Феруза Яхеевна

Доцент кафедры «Экономика и менеджмент»
Джизакского политехнического института
obidova.feruza@bk.ru

Аннотация: В статье представлен анализ влияния принятых нормативных документов на укрепление законодательной базы, инвестиционной программы и практики привлечения прямых инвесторов, участвующих в экономике. Была подчеркнута его роль в развитии экономики Узбекистана, а также сформулированы предложения и рекомендации, направленные на повышение привлекательности инвестиционной среды и активное привлечение прямых иностранных инвестиций.

Ключевые слова: Свободные экономические зоны, иностранные инвестиции, основной капитал, инвестиционный климат, прямые иностранные инвестиции, льготы, валовой внутренний продукт, экспорт, импорт, предприятия с иностранными инвестициями.

THE ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY

Obidova Feruza Yakhyaevna

Associate Professor of the "Economics and Management"

Department of Jizzakh Polytechnic Institute

obidova.feruza@bk.ru

Abstract: The article presents an analysis of the impact of the adopted regulatory documents on the strengthening of the legal framework, the investment program, and the practice of attracting direct investors involved in the economy. Its role in the development of the economy of Uzbekistan was highlighted, as well as suggestions and recommendations aimed at increasing the attractiveness of the investment environment and actively attracting foreign direct investments were formulated.

Key words: Free economic zones, foreign investments, fixed capital, investment climate, foreign direct investments, benefits, gross domestic product, export, import, enterprises with foreign investment.

Bugungi kunning ustuvor vazifalardan biri keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish borasidagi istiqbolli maqsadlarimizni amalga oshirishda hududlarning mutanosib rivojlanishini ta’minlash, ularning ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin iqtisodiy hududlar (EIH) dunyoning ko‘plab mamlakatlarida xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va sanoat rivojlanishini rag‘batlantirishning mashhur vositasi bo‘lib kelgan. O‘zbekiston EIHLar salohiyatini e’tirof etib, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida mamlakat bo‘ylab bir nechta shunday hududlar tashkil etdi. Mamlakatimiz hududlarining ishlab chiqarish, resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash, transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning alohida o‘rni bor.

Davlatimiz rahbarining “Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori erkin iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihibarini o‘z vaqtida ishga tushirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarning yechimiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

2023 yilda jami 25 gektar er maydonida yangi tashkil etilishi rejalashtirilgan kichik sanoat zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan

ta'minlash tadbirlarining manzilli dasturi ishlab chiqilib bunda, tasdiqlanayotgan dastur bo'yicha bosh reja loyihalarini ishlab chiqish Jizzax viloyati mahalliy byudjeti va Jizzax viloyati hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Unga muvofiq, joriy yilda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari infratuzilmasini yaxshilash uchun 1 trillion 600 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilandi. Endilikda 17 ta erkin iqtisodiy zonada qo'shimcha elektr energiyasi, gaz, ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlari hamda avtomobil yo'llarini barpo etish uchun 584 milliard so'm, 145 ta kichik sanoat zonasini uchun 395 milliard so'm yo'naltirilgan bo'lib, yirik investitsiya loyihalarini infratuzilma bilan ta'minlash maqsadida 232 milliard so'm ko'zda tutilgani, rivojlanishdan ortda qolgan 33 ta tumanda sanoat va biznesni jadal rivojlantirish uchun 264 milliard so'm ajratilishi ayni muddao bo'ldi. Erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo'lgan 332 ta loyiha, kichik sanoat zonalarida umumiy qiymati 9,5 trillion so'm bo'lgan 1 ming 800 ta loyiha ishga tushirilishi rejalshtirilgani yurtimizda sanoatni yanada rivojlantirish, import o'rnni bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim omildir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga murojatnomasida, mamlakatimizda mavjud resurslardan nooqilona foydalanish Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va rentabelligi yuzaki o'rganilgani, moliyaviy manbalarning noaniqligi, loyihalar tanlashda shaffoflikning yo'qligi, moliyaviy mablag'larni samarasiz sarflash holatlari bilan bog'liq qator kamchiliklar yurtimiz iqtisodiyoti rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan edi. Ushbu holatlar investitsiya dasturlarini shakllantirish tartibi, uni moliyalashtirish mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqish, bunday noxush amaliyatga barham berish hamda investitsiyalarni iqtisodiyotning real sektoriga jalb qilish, loyihalarni shakllantirishning butunlay yangi mexanizmlarni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tashkil qilingani, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, hukumatimiz huzurida Investitsiyalar, innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish, turizm masalalari kompleksi tuzilgani dastlabki qadam sifatida diqqatga molikdir. Rivojlanish davlat dasturlarini amalga oshirish respublikamiz iqtisodiy o'sishi, xalq farovonligi, investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bilan birga, real yangi ish o'rinalarini tashkil qilish hamda yalpi ichki mahsulot o'sishini ta'minlashda asosiy manba hisoblanadi. Chunki ushbu loyihalar har tomonlama puxta o'rganilgan, samarali, moliyalashtirish manbalari aniq bo'lgan va maxsus davlat komissiyasi tomonidan nazoratga olib boriladigan davlat dasturlari sanaladi.

Investitsiya faoliyati har qanday tizimda ham mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganlik darajasini ifoda etadi. Iqtisodiyotni investitsiyalashga jalb etilayotgan mablag‘lar, xususan, chet el investitsiyalarining salmog‘iga qarab ham mamlakatning iqtisodiy qudratiga baho berish mumkin. Mamlakatimizda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lmish sanoat tarmog‘ni barqaror rivojlanishini ta’minalash, ulardagi iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan bog‘liq muammolarni kompleks hal etish, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish va yanada yuksaltirish maqsadida hukumatimiz tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasida 27 ta loyiha amalga oshirilib, 5 ming 300 ga ya?in ish ýrni yaratilgan. Oxirgi yillarda uning faoliyati takomillashtirilib, biznesga qulaylik kengaytirilgan. 2022 yil oktyabr oyida ishga tushgan “Iruskon” qandolat korxonasi o‘z faoliyatini boshlab, Rossiya, Turkiya, Germaniya va Italiya tajribasi asosida “Deya” brendi bilan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Yillik quvvati 12 ming tonna bo‘lib, 100 ga yaqin kishi ish bilan ta’milangan. Kelgusida ikkinchi bosqich uchun Germaniya va Turkiyadan yana 5 million dollarlik uskunalar olib kelish rejalashtirilgan. Buning natijasida yana 550 nafar yangi ish o‘rnini yaratiladi.

Shuningdek, davlat byudjeti va byudjedtan tashqari jamg‘armalar, tiklanish va taraqqiyot jamqarmasi mablag‘lari, hukumat kafolatlagan kreditlar hisobidan tovarlarni davlat uchun xarid qilish bo‘yicha tender hujjatlari va import shartnomalarini ekspertiza qilishda ham to‘lanmaydi. Dastlabki va yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarni kompleks ekspertiza qilish uchun to‘lanadigan to‘lov miqdori to‘rt barobargacha qisqartirildi.

Bundan tashqari, halqaro moliya institutlarining kreditlari hisobiga amalga oshiriladigan yoki bir bosqichli loyihalar bo‘yicha moliyaviy-iqtisodiy hisobot ishlab chiqish talabi bekor qilindi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 4 388 tani tashkil etdi. Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 3 841 ta, oilaviy korxonalar 274 ta, xususiy korxonalar 69 tani tashkil etgan.

Davlat investitsiya dasturi orqali moliyalashtirilayotgan loyihalarning samaradorligini oshirish maqsadida davlat investitsiya dasturini ishlab chiqishda bevosita xorijiy investitsiyalar hamda hukumat kafolatisiz kirib kelayotgan halqaro moliyaviy institutlar resurslari bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘sishimcha risklarni minimallashtirish masalalarini har tomonlama o‘rganish zarur va bu jarayonlarga ham chuqur marketing tadqiqotlarini tadbiq etish lozim.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, milliy iqtisodiyotda har bir soha va tarmoqning har tomonlama mukammal ravishda rivojlanishi, uning huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy hamda tashkiliy jihatlarining ta'minlanishi bevosita olib borilayotgan islohotlarning jadallahushi va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrdagi «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida» gi O'RQ-598-sون Qonuni, 3-modda.
3. Умарова З. О., Обидова Ф. Я. ЗНАЧЕНИЕ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2019. – №. 2-6. – С. 53-57.
4. Обидова Ф. Я., Умарова З. О. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬ-КАК ЛИДЕР //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2019. – №. 2-6. – С. 50-52.
5. Yahyoyevna, O. F., & Tatulovna, Z. M. (2024). ISSUES OF PROVIDING ECONOMIC STABILITY UNDER THE INFLUENCE OF FACTORS OF SAVING. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 374-379.
6. Обидова, Ф. Я. (2023). УПРАВЛЕНИЕ СИСТЕМОЙ КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 929-932.
7. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2019). SIGNIFICANCE OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY. *Actual scientific research in the modern world*, (2-6), 53.